

## **1-mavzu. Arxeologiya faning maqsad va vazifalari**

**Mavzuni o'ganishdan maqsad:** talabalarga ushbu mavzu bo'yicha tushuncha berish, shuningdek turli davrlarda tadqiqotchilar tomonidan mavzuga berilgan ta'riflarni talabalarga tushuntirish. Mavzuning muhimligi va dolzarbligidan talabalarni xabardor etish.

**Kalit so'zlar:** Arxeologiya, manbalar, yodgorliklar, moddiy madaniyat, davrlashtirish, tosh davri, paleolit, mezolit, neolit, eneolit, bronza, temir, madaniy qatlam, shurf, yarus, transheya, tadqiqot turlari, tadqiqot usullari. Arxey, proterozoy, paleozoy, mezazoy, kaynazoy, uchlamchi davr, to'rtlamchi davr, primat, avstrolopiteklar, antroplar, paleotsen, eotsen, oligotsen, miotsen, ilotsen, ileystotsen, golotsen, zinjantrop, sinantrop, neandertal, Homo habilis, Homo sapiyens.

### **Asosiy masalalar(Reja):**

1. Arxeologiya fanining vazifalari.
2. Arxeologik tadqiqot turlari va usullari.
3. Antropogen haqida umumiy tushuncha
4. Odamzodning taraqqiyot bosqichlari

Kishilik jamiyatining vujudga kelish jarayoni uzoq o'tmishta borib taqaladi. O'z navbatida o'tmishti o'rganish har bir davring dolzARB masalalaridan biri bo'lib kelgan. Arxeologiya fani ham tarixning tarkibiy qismi bo'lib, ijtimoiy fanlar orasida alohida o'rIN tutadi.

Arxeologiya – ijtimoiy fanlar ichida eng yoshi hisoblanadi. Biroq uning ildizlari juda uzoq, ilk insoniyatning vujudga kelish davriga borib taqaladi. «Arxeologiya» terminining o'zi ikkita yunon so'zidan iborat bo'lib, «arxayos» - qadimgi va «logos» - fan-bilim ma'nosini anglatadi. Dastlab bu terminni mil.avv IV-asrda Aflatun o'zining «Gippiy» diologida, qadim zamon haqidagi fanni nazarda tutib juda keng ma'noda ishlatgan. Shu tariqa bu so'z qadimgi Gretsiyada qo'llanilgan va o'tmisht masalalari muxokamasi ma'nosini anglatgan. Vaqt o'tgach uning ma'no doirasi ancha o'zgarib, kengayib borgan va tarix fanining muxim tarmoqlaridan biriga aylangan.

Ma'lumki tarix fani ikki xil manbalarga tayanib ish ko'radi – yozma va moddiy. Tarixning eng qadimgi davrga oid yozma manbalarning yo'qligi arxeologiyaning fan sifatida alohida ajralib chiqishiga sabab bo'lgan. Moddiy madaniyat manbalari yozma manbalardan ko'p marta qadimiyroq. Kishilar yozuvni 5000-6000 yillar oldin o'rgangan bo'lsa, tosh va boshqa ashylardan qurol yasash bundan oldingi 2,5-3 mln yillarga borib taqaladi. Demak, kishilik jamiyatini tarixinining juda katta davri arxeologik manbalarga tayangan holda qayta tiklab talqin qilinadi. Arxeologiya o'tmishni yozma manbalar moddiy manbalardan ko'proq ma'lumot berishga qodir bo'lgan davrgacha o'rganadi. Arxeologiyaning o'rganish ob'yekti xronologiyasi XV–XVII asrlardan yuqoriga ko'tarilmaydi. Ammo ba'zan arxeologiya hatto XX asrga oid yangi ma'lumot berishi mumkin.

Arxeologiya-tarixiy, moddiy manbalar asosida insoniyatning o'tmishini o'rgatuvchi fan hisoblanadi. M.Ye.Masson unga quyidagicha ta'rif bergan: arxeologiya tarixning bir sohasi bo'lib, kishilik jamiyatini o'tmishi va faoliyatini xilma-xil izlarga, aksariyat hollarda moddiy yodgorliklariga, yozma manbalarga, til, etnografiya, geologiya, zoologiya, antropologiya va boshqa fanlarning yutuqlariga tayanib, o'rganuvchi fandir. Tarix va arxeologiya bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bir birini to'ldiradi. Ular aslida bitta fanning 2 sohasidir. Tarixning asosiy manbai-yozuv va uning manbalari bo'lsa, arxeologiyaning manbalari unga nisbatan qadimiydir. Uning ilk davri 2.5-3 million yilga borib taqaladi. Biz kishilik jamiyatini tarixini 24 soat deb faraz qilsak, uning 23 soat-u 56 minuti yozma manbalarsiz davrga, 4 minuti yozma tarixga to'g'ri keladi. Demak kishilik jamiyatining juda katta davrini o'rganish arxeologik manbalarga tayanib olib boriladi.

Hozirgi zamon arxeologiya fanining vazifasi kishilik jamiyatini o'tmishi va faoliyatini moddiy manbalarga, imkoniyat bo'lgan hollarda esa yozma manbalarga, til, etnografiya, geologiya, tuproqshunoslik, antropologiya, zoologiya, botanika va boshqa fanlar yutuqlariga tayangan holda o'rganishdir.

Arxeologiya ibridoiv davr odamlari ishlatgan tosh quollar, qazilma hayvon suyaklari, ilk sopol buyumlar, taqinchoqlar, qurol-yarog'lar, tanga pullar, qadimiy

arxitektura inshootlari, haykallar, yozuvlar, suratlar va inson mehnati bilan yaratilgan barcha ashyolarni o'rganadi. Arxeologiya bu manbalar asosida tarixiy jarayonni tiklaydi. Bu manbalarning ko'pchiliginini yerdan qazib olinishini nazarda tutgan holda, arxeologiyani belkurak bilan qurollangan fan deb atashadi. Qadimgi buyumlarni o'rganish arxeologiyaning birdan – bir maqsadi emas. Topilmalar tarixiy tadqiqotlar uchun faqat material sifatida ilmiy qimmatga ega bo'ladi, xolos. Arxeologlar qazib olingan buyumlarni ta'riflash, ularning yoshini, qaysi davrga mansubligini va shu kabilarni aniqlash bilangina cheklanib qolmaydilar. Arxeologiyaning asosiy maqsadi aniqlangan manbalar vositasida o'tmish tarixining barcha qirralarini tiklashdan iborat.

O'tmish davrni tiklashda arxeologiya fani tarkibida numizmatika, epigrafika, sfragistika fan tarmoqlari rivoj topdi va etnografiya, antronologiya, geologiya, paleobotanika, paleozoologiya fanlari bilan hamkorlikda ish olib bormoqda.

Arxeologiya jamiyatning iqtisodiy taraqqiyoti o'zgarishini ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlari asosida emas, aksincha ishlab chiqarish usullari va qurollarini o'zgarishi asosida baholashga harakat qiladi. Hozirgi kunda arxeologik tadqiqotlar yer sharining barcha hududida davom ettirilmoqda. Jumladan O'zbekistonda ham so'nggi yillarda arxeologiya fani sohasida ko'pgina yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. Arxeologiya fani oldida bugungi kunda ba'zi muammolar ham ko'ndalang turibdi. Rivojlanish jadal sur'atlarda borayotgan bugungi kunda ko'pgina arxeologik yodgorliklar buzilib ketmoqda. Arxeologlar oldidagi vazifa insonlar yoki tabiat kuchlari faoliyati natijasida yo'q bo'lib ketish xavfi ostida turgan yodgorliklarni birinchi bo'lib o'rganishdir.

Arxeologiya insoniyatning o'tmish tarixini o'rganishda arxeologik ekspeditsiyalar natijasida topilgan ibridoiy makonlar, qishloqlar, shaharlar, mudofaa va suv inshootlari, qoyatosh rasmlari hamda boshqa buyumlarga suyanib ish ko'radi. Arxeolgik ekspeditsiyalar deyilganda viloyat, shahar, tuman, qishloq va boshqa joylarda moddiy madaniyat yodgorliklarini dala – tadqiqot yo'li bilan o'rganish usuli tushuniladi. Arxeologik ekspeditsiyalar va otryadlarning ish uslubi uch pog'onali bo'lib, arxeologik qidiruv, sinov va qazish ishlarini amalga

oshirishdan iborat. Uning vazifasi yodgorlikning paydo bo'lish davri, qancha yashagani va boshqa xususiyatlarini aniqlash hisoblanadi. Keyingi bir asr davomida jahon arxeologiyasi juda katta yutuqlarni qo'lga kiritgan bo'lsa, O'zbekiston arxeologiyasi mustaqillikni qo'lga kiritgach, katta yutuqlarga erisha boshladi.

O'zbekiston tarixining arxeologik jixatdan o'rganilishini 3 davrga bo'lish mumkin: 1.Rossiya mustamlakasi davri. 2. Sovetlar xukmronligi davri. 3. O'zbekiston mustaqilligi davri.

Rossiya mustamlasi davri 3 bosqichga bo'linadi.

1- bosqich XIX asrning birinchi yarmi xisoblanadi. Bu davrda Rossiya O'zbekistonning sharoitlarini o'rganish uchun turli ekspeditsiyalar uyushtiradi. 1819 yilda kapitan N.N.Murav'yev boshchiligidagi dastlabki arxeologik ekspediya yuboriladi. U harbiy xarakterdagi ekspediya bo'lsada, Xiva xonligidagi turli arxeologik yodgorliklarni ruyxatga olib, muxim ma'lumotlar to'plagan. Bu to'plagan ma'lumotlar fransuz va nemis tillariga tarjima qilingan va undan dastlab O'zbekiston xududida ibtidoyi odamlar yashaganliklari haqida fikr bildirilgan. Birinchi bosqichda O'zbekistonda arxeologlar bo'limganligi sababli ham turli kasbdagi kishilar tomonidan moddiy manbalar to'planib, muzeylarga topshirilgan. Ular hozirda ham saqlanmoqda.

2- bosqich XIX asrning ikkinchi yarmida boshlangan. O'rta Osiyo Rossiya vassa-liga aylangach, bu yerdagi moddiy yodgorliklarni o'rganish boshlandi. V.V. Bartol'd, V.A. Jukovskiy, N.I.Veselovskiy kabi sharqshunos olimlarning hamda A.L.Kun, P.I.Lerx, V.L.Vyatkin, I.T.Poslovskiy, N.P.Ostroumov va boshqa havaskorlarning O'rta Osiyo arxeologiyasi va tarixini o'rganishdagi xizmati katta bo'ldi. 1870 yilda Toshkentdagi eski qal'a yaqinida topilgan. Afrosiyob xarobasi orqali yo'l qurilishida chaqmoqtosh nukleusi (tosh o'zagi), tosh qirgich topilgan. 1896 yilda Toshkent atrofidan topilgan tosh bolg'aga o'xshash topilmalar Orenburg, Issiqko'l xududlaridan ham topiladi. Bu topilmalar o'sha davr uchun katta ahamiyatga ega edi.

3-bosqich Turkiston xavaskor-arxeologlar to'garagining tuzilishi bilan bog'liq. U bevosita V.V. Bartoldning rahbarligida 1895 yilda tuzilib, ustavi tasdiqlandi. U 1917 yilgacha faoliyat ko'rsatdi. To'garakda turli kasb egalari a'zolari bo'lib, o'lkadagi arxeologik yodgorliklarni o'rganish ishiga jiddiy e'tibor berib, bu sohadagi dastlabki yutuqlarni qo'lga kiritdilar. U dastlab Ashxobodda tashkil qilindi, keyinchalik Samarqandda tuzilgan. 1896 yilda Toshkentda to'garak muzeyi tashkil qilingan. Uning raxbari N.P.Ostroumov bo'lgan. To'garakda mahalliy havaskorlardan Akrom Asqarov, Mirza Buxarin, Mirza Abdulin, Gafiz, I.Mirmuxamedovlar faol ishtirok qilganlar. To'garak a'zolari turli hududlardan birmuncha material to'plashga muvoffaq bo'lganlar. Lekin o'sha davrdagi mavjud ilmiy to'garaklar arxeologiyani fan darajasiga qo'tara olmadi.

Ikkinci davr ham 3 bosqichga bo'linadi.

1-bosqich. 1917 yildan 1938 yilgacha davom qilgan. Bunda Sho'rolar hokimiysi tashkil qilingan dastlabki davrlarda moddiy yodgorliklarni saqlash va ximoya qilish masalalari qo'tarilgan. 1918 yilda Moddiy Madaniyat tarixi Rossiya Akademiyasi tuzildi. Unga barcha arxeologik, san'at, madaniyat, va me'morchilik yodgorliklarini hisobga olib ularni davlat himoyasiga o'tkazish vazifasi qo'yildi. Bu akademiyada arxeologlarga katta imkoniyat yaratilib faoliyatları qo'llab quvvatlandi. O'rta Osiyo arxeologiyasiga ham qiziqish kuchaydi. 1920 yil 27 noyabrda Toshkentda muzeylar, qadimgi yodgorliklarni asrash, san'at va tabiatni muhofaza qilish Turkiston Komitetini tashkil qilinishi (Turkomstaris) O'zbekiston arxeologiyasining shakllanishida muhim rol o'ynadi. Bu davrda yodgorliklarni keng ko'lamda qazib o'rganish ishlariga va har bir topilmani ilmiy asoslashga alohida e'tibor qaratildi. G.V. Grigor'ev 1934 yildan boshlab Toshkent atrofidagi yodgorliklarni va Samarqand yaqinidagi antik davrga oid obidalarni qazib tekshirdi. Shuningdek tarixni davrlashtirish masalasi arxeolog va tarixchilarning diqqat markazida turdi.

O'zbekiston hududida arxeologik tadqiqotlar XX asming 30 yillari avj oldi. Bu ikkinchi bosqichni tashkil qiladi. Unda sobiq SSSR FA ning O'rta Osiyo respublikalaridagi filiallari, Leningrad va Moskvadagi ilmiy tashkilotlar,

Moddiy madaniyat tarixi akademiyasi (hozirgi Rossiya FA ning Arxeologiya instituti), Sharq madaniyati Muzeyi kabi tashkilotlar olib borgan.

Arxeologik tadqiqotlarni kengaytirish maqsadida O'rta Osiyo hududida 5ta epspeditsiya tashkil qilindi.

1. 1936 yilda M.Ye.Masson boshchiligidagi Termiz arxeologiya ekspeditsiyasi.
2. 1937 yilda A.N.Bernshtam rahbarligida Yettisuv arxeologik ekspeditsiyasi.
3. 1937 yilda S.P.Tolstov rahbarligida Xorazm arxeologik. ekspeditsiyasi.
4. 1937 yilda Yu.A.Zadneprovskiy rahbarligida Farg'ona arxeologik ekspeditsiyasi.
5. 1937 yilda V.A. Shishkin rahbarligida Quyi Zarafshon arxeologik ekspeditsiyasi.

Shulardan 4 tasi: Termiz, Xorazm, Quyi Zarafshon, Farg'ona ekspeditsiyalari o'z faoliyatini O'zbekiston hududida olib borganlar.

1939 yildan boshlab ilmiy arxeologik kadrlarni aspirantura orqali tayyorlash boshlandi. 1940 yilda O'zbekistonda Fanlar Akademiyasi tashkil qilinib, Tarix instituti qoshida arxeologiya bo'limi tuzildi. Shu davrda Toshkent davlat universitetining Tarix fakultetida Arxeologiya kafedrasи ochilib, kadrlar tayyorlana boshlandi. Arxeologiya kafedrasи mudiri M.Ye.Masson bo'lган. Arxeolog olimlar o'zaro xamkorlikdagi faoliyatları natijasida 2-bosqichda o'z davrining katta yutuqlarini qo'lga kiritdilar. Mn: 1937 yilda V.A.Shishkin Buxoro vohasining g'arbiy qismida tadqiqot olib bordi. 1938 yili A.P.Okladnikov Surxondaryoning Boysun tog'larida tekshirish olib borib, paleolit davriga oid makonni kashf etdi. 1939 yilda M.Ye.Masson Katta Farg'ona kanali hududida arxeologik ishlar olib bordi, A.I. Terenojkin, A.N.Nabiyevlar va boshqalar 1939—40 yillarda Toshkent yaqinidagi Oqtepa va Toshkent kanalida tekshirish o'tkazdilar. 40-yillarning boshlariga kelib, yangi qurilish joylarida 8 ta arxeologik kuzatuv ekspediyalari olib borildi. Xullas, arxeologik tadqiqotlar natijasida katta ilmiy ma'lumotlar to'plandi. Bunda asosiy diqqat e'tibor O'rta Osiyo xalqlarining tarixini davrlashtirish va etnogenez masalalariga qaratildi.

3-bosqich 1945 yildan keyingi davrlarni o’z ichiga oladi. Endilikda Quyi Zarafshon ekspeditsiyasi ishini O’zbekiston FA ning Buxoro ekspeditsiyasi, Yettisuv ekspeditsiyasi ishini 1944-49 yillarida Tyanь—Shanь Oloy ekspeditsiyasi, 1951—55 yillari esa Qirg’iziston arxeologik etnografik ekspeditsiyasi davom qildirdi. 1946 yildan 1952 yillargacha Farg’ona arxeologiyasini A.N.Bernshtam rahbarligida Pomir-Oloy va Pomir-Farg’ona ekspediyalari o’rgandi. 1947 yildan boshlab Samarqand davlat universiteti ekspeditsiyasi ibtidoyi tarix soxasida muhim ma’lumotlarni qo’lga kiritdi. Ya.G’.G’ulomov va V.A.Shishkinlar rahbarligida O’zbekiston Fanlar Akademiyasining O’zbekiston arxeologiya ekspeditsiyasi ish boshladi. Bu ekspeditsiyaning ko’pgina otryadlari Surxondaryo, Samarqand, Buxoro va Toshkent vohalarida hamda Farg’ona vodiysida katta arxeologik tadqiqotlar o’tkazdi.

Arxeologogik tadqiqoti ishlari olib borishning xarakterigina emas, uning texnik ta’midotida ham katta o’zgarishlar qilindi. Jumladan Xorazm arxeologik ekspeditsiyasida urushgacha tuyalardan foydalanilgan bo’lsa, keyinchalik, avtomashina va aviatsiya qo’llanildi. Arxeologik yodgorliklar yoshini va tarkibini aniqlashda fizikada yangi radiokorbon analiz, kuchaytirilgan mikroskoplar yordamida ibtidoiy qurol—aslalahalarning xo’jalikda qo’llanish funksiyalarini aniqlash kabi metodlar ishlab chiqildi va bu sohada katta yutuqlarga erishildi.

1970 yilda O’zbekiston Fanlar Akademiyasi qoshida Arxeologiya institutining tashkil topishi hamda 1971 yilda Samarqand davlat universitetida arxeologiya kafedrasining tashkil qilinishi kadrlar yetishtirib chiqarishda va ilmiy tadqiqot ishlarini yanada jonlantirishda katta ahamiyat kasb etdi.

Sobiq SSSR vaqtida O’zbekiston arxeologiyasining rivojida S.P.Tolstov, M.Ye. Masson, M.M. D’Byakonov, A.P. Okladnikov, M.M. Gerasimov, V.G. Grigor’ev, A.Yu. Yakubovskiy, Ya.G’. G’ulomov, M.P. Gryaznov, A.N. Bernshtam, A.I. Terenojkin, B.A. Latinin, A.M. Belenitskiy, V.A.Shishkin,

V.M. Masson, B.A. Litvinskiy, G.A. Pugachenkova, I.A. Itinalarning hissasi katta bo'ldi.

Shuni aytish kerakki, XX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoda arxeologlarning katta guruhi yetishib chiqdi. A.Asqarov, A.Muxammadjonov, O'Islomov, P.I. Al'baum, Yu.F. Buryakov, R.X. Sulaymonov, N. Ne'matov, I.Axrarov, V.I. Sarianidi, K. Akishev, X. Oltmishboyev, A.V. Vinogradov, V.N.Yagodin, O.K. Berdiyev, M.R. Qosimov, T. Mirsoatov, E. V. Rtveladze, M.Jo'raqulov, Ye.B. Bijanov, M. Mambetullayev va boshqalar. Ularning olib borgan tadqiqotlari natijasida XX asrning 80 – yillarida olamshumul tadqiqotlar o'tkazildi. Jumladan; 1980 yilda arxeolog O'Islomov Selung'ur g'orida qayta tadqiqot o'tkazib, sinantrop odami suyagi qoldiqlarini topdi. M.R.Qosimov Ko'lbulq makonini keng o'rgandi, shuningdek O'zbekiston arxeologisining ko'pgina muammoli masalalari yoritildi.

3 davr O'zbekistonning mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyingi davrlar kiradi. Mustaqillikning dastlabki davrlarida arxeologik tadqiqot ishlari birmuncha to'xtaganday bo'ldi. Lekin Vazirlar Mahkamasining 1998 yilda Tarix instituti faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan ishlari natijasida va Buyuk ipak yo'lining tarixinining keng tadqiq qilinishi yuzasidan olib borilgan ishlar bo'yicha yana arxeologik ishlar jonlanib ketdi.

Hozirda O'zbekiston arxeologiyasini o'rganish ancha yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bu ish bilan maxsus institutlar, universitetlar, pedagogika institutlari va turli bo'limlar shug'ullanmoqdalar. Ular qoshida ko'plab arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etilgan.

Arxeologik ekspeditsiya ish uslubi 3 pog'onalik bo'ladi;

1. Arxeologik qidiruv.
2. Sinov.
3. Keng miqyosda (statsionar) qazish ishlari olib borish.

Ularning vazifasi yodgorliklarning paydo bo'lgan davri, qancha yashaganligi, inqirozga yuz tutishi va boshqa xususiyatlarini aniqlash hisoblanadi. Lekin, arxeologiyada qadimgi buyumlarni o'rganishning bari, bir

maqsad qilib olinmaydi. Topilmalar tarixiy tadqiqodlar uchun faqat manba sifatidagina ilmiy qimmatga ega bo'ladi. Buyumlarning yoshi, nimaga ishlatilganini, qanday uslubda yasalganini aniqlash tadqiqotning zarur tayyorgarlik bosqichi hisoblanadi. Lekin arxeologlar bu bilan cheklanibgina qolmaydilar. Buyumlarni bir-biri bilan bog'lab, tarixiy va yozma manbalarga solishtirgan holda o'rganadilar.

Arxeologik yodgorliklar yer ostida yoki yer ustida joylashgan bo'ladi. Yer ostidagi yodgorliklarni o'rganish jarayonida arxeologlar madaniy qatlamlarga alohida e'tibor beradilar.

Madaniy qatlam deganda—insoniyatning turmushi, xo'jalik faoliyati izlari saqlanib qolgan tuproq qatlami tushuniladi. Madaniy qatlamlar bir va bir necha o'ntacha qatlamlarga ega bo'lishi mumkin. Ularning qalnligi bir necha santimetrdan 30—35 metrgacha bo'lishi mumkin. Bu esa mazkur joyda odamlarning qancha vaqt yashaganligi bilan bog'liq. Madaniy qatlam u yoki bu qatlamlarga shurf tashlash, keyin keng ko'lamda qazish ishlari natijasida aniqlanadi.

Shurf aslida nemischa so'z bo'lib, o'zbek tilida qaziyman degan ma'noni bildiradi. Shurf solish deganda yodgorliklardagi dastlabki qazish ishlari tushunilib, madaniy qatlamni aniqlash va yodgorliklar haqida dastlabki ma'lumotlarni olishdir. Shurf ko'pincha kvadrat va to'g'ri to'rtburchak shakllarida bo'lib, uning chuqurligi va kengligi madaniy qatlamga qarab har xil bo'lishi mumkin. Keng ko'lamda qazish natijasida madaniy qatlam to'la ochilib, inson faoliyati izlari bo'limgan yergacha kovlab tushiladi, arxeologiyada u materik—bezovta qilinmagan yer deb ataladi.

O'zbekistonda topilgan arxeologik manbalarni shartli ravishda 2 turga bo'lish mumkin;

1. Tabiiy manbalar inson va hayvon suyaklari, o'simliklar qoldiqlari geologik qatlamlari bo'lib, ularni asosan zoologlar, botaniklar, geologlar o'rganadilar.

2. Inson tomonidan yaratilgan manbalar bo'lib, ular mehnat qurollari, sopol idishlari, san'at asarlari, qoyatosh rasmlari, shuningdek yozma manbalar ham kiradi. Arxeologlar kishilik madaniyati tarixini o'rganishda moddiy va yozma manbalarga ayanib ish ko'radilar.

Arxeologik yodgorliklar deb, odamlar yashagan joylar ibtidoiy makonlari, qishloq va shahar xarobalari, qoyatosh rasmlari, istehkomlar, ibodatxonalar, qadimgi sug'orish inshootlariga aytildi. Arxeologiya fani san'at sohasi bilan chambarchas bog'liqdir. U yoki bu topilmalar yordamida o'sha davr manzarasi, sharoiti, jamoada mavjud udumlar va evolyutsiyaning qaysi pog'onasida turganligini aniqlashga muvoffaq bo'ladi.

Qidiruv (arxeologik razvedka) va arxeologik qazuv davridayoq arxeologik manbalarni o'rganish boshlanadi. Qidiruv va qazuv chizmalar chizish, suratga tushirish va kundalik yuritish bilan qat'iy hujjatlashtirib boriladi. Qidiruv jarayonida quyidagi vositalardan foydalaniladi: piyoda yurish - yer ustidagi ashyolarni o'rganish; transport yordamida - yirik arxeologik yodgorliklar xaritaga tushiriladi; havodan kuzatish - samolyot yordamida ayerofotosurat olish orqali qadimiy suv inshoatlari va mudofa devorlari kuzatiladi; suv osti arxeologiyasi - ko'pincha okean va dengizlarda suv ostida qolgan yodgorliklar o'rganiladi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, arxeologik yodgorliklarning bir qismi yer ostida va boshqa xillari yer ustidadir. Bu yodgorliklarni qazish jarayonida arxeologlar madaniy qatlamga duch keladilar. Madaniy qatlam deyilganda insoniyatning turmushi, xo'jaligi va g'oyaviy faoliyatining izlari saqlanib qolgan tuproq qatlami tushuniladi. Chunonchi, g'or – makon, ochiq manzilgoh, qishloq va shahar madaniy qoldiqlarining jamiyat rivojlanishi bilan bog'liq holda joylanishi madaniy qatlamni ifodalaydi. Qazish jarayonida «shurf», «raskop», «transheya» kabi kesma chuqur xandaqlar kovlanib, ular asosida yodgorlikning davrini belgilovchi madaniy qatlamlar aniqlanadi. Shurf aslida nemischa so'z bo'lib, qazimoq degan ma'noni anglatadi. Shurf solish deganda yodgorlikdagi dastlabki qazish ishlari tushuniladi. Qazish natijasida madaniy qatlamlar to'la ochilib, inson faoliyatining izlari bo'limgan yergacha kovlab tushiladi, arxeologiyada u

«materik» - bezovta qilinmagan yer deb ataladi. Madaniy qatlamning qalinlik darajasi bir necha sm dan 30-35 m. gacha bo'ladi. Madaniy qatlamlardan topilgan buyumlar ibridoiy va qadimiylar tarixni o'rganishda muhim manbalardir. Arxeologik manbalarni shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin: tabiiy va inson tomonidan yaratilgan manbalar. Arxeologiyada qo'llaniladigan «yodgorlik» va «manba» so'zleri bir ma'noni anglatadi. Olingan ashayoviy dalillar belgilangan mahalliy joyda raqamlanadi va maxsus laboratoriyada tadqiqot qilinadi. Tadqiqot jarayonida arxeologik davrlar bosqichi aniqlandi. Biz ko'pincha arxeologik davrlashtirishda:

- a) Tosh davri (paleolit, mezolit, neolit)
- b) Bronza davri (yeneolit, bronza)
- v) Temir davriga ajratamiz.

Olingan ashayolar o'rGANilib, unga xronologik jadvali ishlab chiqiladi. Xronologiya bu turar joyning, birorta qabriston yoki ashayoning paydo bo'lgan davrini aniqlanishidir. Bundan tashqari geologik, biologik, ximiyaviy, fizikaviy uslublar yordamida ham xronologik tashxis qo'yiladi.

Geologik jihatdan olimlar Yer qobig'inining paydo bo'lgan davridan boshlab to hozirgi kunga qadar bo'lgan taraqqiyotini 5 eraga - arxey, proterozoy, paleozoy, mezazoy va kaynazoyga bo'ladilar. Arxey erasida yer shari hali qizib turgan bo'lib, faqat shu eraning oxiridagina dastlabki juda oddiy organizmlar paydo bo'lgan. Paleozoy erasi besh davrga bo'linadi: kembriy, silur, devon, toshko'mir, va perm davrlari. Mezozoy erasi uch davrga bo'linadi: trias, yura va bo'r davrlari.

Kaynazoy – yangi hayot erasi deb nomlanadi va ikki qismga ajratiladi. Uning umumiyligi davri 60-70 million yilni tashkil etadi. To'rtlamchi davr kaynazoy erasining ikkinchi bosqichi bo'lib, 3 – 3,5 mln. yilni o'z ichiga oladi. Antropogen (grekcha «antropos» – inson, «genezis» – tug'ilis) yoki to'rtlamchi davr odamning kelib chiqishi va rivojlanishi bilan bog'liq. «Antropogen» so'zini birinchi bo'lib 1922 yilda A.P.Pavlov fanga kiritgan.

To'rtlamchi davr boshlarida iqlim hozirgiga nisbatan issiqroq bo'lib, Pireney yarimorlidan Xitoygacha bo'lgan maydonlar subtropik, Osiyoning janubi va Afrikaning katta qismi esa tropik mintaqalar edi. Antropogen eopleystotsen,

pleystotsen va golotsen bosqichlariga bo'linadi. Antropogenning davrlashtirilishiga iqlim o'zgarishlari asos bo'lgan. Quyida biz antropogen davr bosqichlarini tosh asri arxeologiyasining bosqichlari bilan qiyosiy jadvalini keltiramiz:

|                            | To'rtlamchi<br>bosqichlari | davr  | Tosh asri sanasi (ming yil<br>hisobida) | Qadimgi tosh asri<br>davrlari |
|----------------------------|----------------------------|-------|---|-------------------------------|
| Pleystotsen<br>(muzliklar) | Golotsen                   | 10    | 10                                      |                               |
|                            | Vyurm                      | -80   | 35                                      | So'nggi paleolit              |
|                            | Riss – vyurm               | -120  | -100                                    | Muste                         |
|                            | Riss                       | -200  | -300                                    | O'rta va so'nggi<br>ashel     |
|                            | Mindel-riss                | -350  |   | Qadimgi ashel                 |
|                            | Mindel                     | -500  |   |                               |
| Yeopleystotsen             | Gyunts-mindel              | -700  | -700                                    |                               |
|                            | Gyunts                     | -1000 |   | Olduvay                       |
|                            | Dunay                      | -2000 | -2600                                   |                               |
| Neogen                     |                            |       |   |                               |

Antropogenning boshlanish vaqtin haqida turlicha qarashlar mavjud. Keyingi yillardagi tadqiqotlar insoniyatning yoshini yanada uzaytirmoqda. Ba'zi olimlarning fikricha antropogenning quyi chegarasini 3-3,5 mln. yil oldinga siljitisiz zarur.

Ilmiy anatomik ma'lumotlarda insoniyatni kelib chiqish asoslari ilk primatlardan va ularning hozirda yo'q bo'lib ketgan avlodlari avstrolopiteklarga borib taqaladi degan fikr bayon etiladi. Avstrolopiteklar janub maymuni hisoblanib, uning ajdodlari parapitek, propliopitek va driopiteklar hisoblanadi. Avstrolopitek miya qutisining hajmi 500-600 sm<sup>3</sup> bo'lib, u ikki oyoqda tik yurgan. Nomo – odamning yuzaga kelish jarayoni haqida juda ko'p ilmiy talqinlar mavjud bo'lib, ular keyingi sahifalarda yoritiladi.

Odamning yuksak darajada rivojlangan maymunlarga mansubligi to'g'risidagi ingliz tabiatshunoslari Ch.Darvin, T.Geksli va olimlardan K.Liney, J. Lamark, A. Rovernov, keyinchalik Ya.Ya. Rogiskiylarni ishlarida ko'ramiz.

Ch.Darvin nazariyasida asosan evolyutsion taraqqiyot va tabiiy tanlash mahsulini o'rni degan fikr yotadi. Birinchi insonning vatani qayerda degan savol hanuzgacha ochiq qolmoqda. Ayrim olimlarning fikricha bu Afrika. 1960 yili Tanzaniyaning Olduvay g'orida Luis Liki tomonidan odamsifat mavjudot -

zinjantropning qoldiqlari topilgan. Ularning yoshi 1,75 – 1,85 mln.yil deb belgilangan. Miyasining hajmi 657 sm<sup>3</sup>. Tosh yordamida u daraxtdan o'ziga qurol yasardi. Uni Homo habilis (ishbilarmon odam) deb atashadi. Efiopiyada topilgan prezinjantropning yoshi undan ham katta, taxminan 2,8 mln.yil.

Yeng qadimiy odamlar arxantroplar deb ataladi (arxayos - qadimgi). 1891 yil Yava orolida Yevgeniy Dyubua tomonidan arxantropning qoldiqlari topilgan. Ular o'shanda pitekantrop deb atalgan (grekcha pitekos - maymun).

## **ENG QADIMGI ODAM EVOLYUTSIYASI**

| <b>№</b> | <b>nomi</b>                             | <b>Topilgan yili va joyi</b>          | <b>Yashagan davri</b>   | <b>Bosh miya hajmi</b>                  | <b>Ahamiyati</b>  |
|----------|---|---------------------------------------|-------------------------|---|---|
| <b>1</b> | Driapitek<br>“daraxtda yuruvchi maymun” | 1858 y.<br>Avstryaning Yuqori Goronna | 5-12 mln. yil ilgari    | 600-680 sm <sup>2</sup>                 | Hayvonot olamidan ajralib chiqqan   |
| <b>2</b> | Avstralopitek<br>“Janub maymuni”        | 1924 y.<br>Janubiy Afrika             | 3-4 mln. yil ilgari     | 700 sm <sup>2</sup><br>120-140 sm       | Hayvonot olamidan insoniyat olamiga o'tish  |
| <b>3</b> | Zinjantrop<br>“Ishbilarmon odam”        | 1959 y.<br>Afikaning Olduvey darasi   | 3-2 mln. yil ilgari     | 850 sm <sup>2</sup><br>135-150 sm       | Toshni toshga urib mehnat qila boshlashi  |
| <b>4</b> | Petikantrop<br>“Maymunsimon odam”       | 1890 y.<br>Yava orollari              | 700-600 ming yil ilgari | 900 sm <sup>2</sup><br>170 sm           | Maymunsimon odamlardan uzoqlashgan  |
| <b>5</b> | Sinantrup<br>“Xitoy odami”              | 1927-1937 y<br>Pekin atrofi           | 600-500 ming yil ilgari | 1100-1200 sm <sup>2</sup><br>150-160 sm | Olovning kashf etilishi, odamning biologik, jismoniy tuzulishidagi keskin o'zgarish |
| <b>6</b> | Geydelberg                              | 1907 y<br>Geydelberg shahri           | 400 ming yil ilgari     |   |   |
| <b>7</b> | Neandertal                              | 1856 y<br>Germaniya                   | 100-40 ming yil ilgari  | 1400 sm <sup>2</sup><br>156-165 sm      |   |
| <b>8</b> | Kromanion                               | 1868 y<br>Frantsiya                   | 40-12 ming yil ilgari   | 1590 sm <sup>2</sup><br>180 sm          | Aql-idrokli odam  |

**Antropoginez-odamning kelib chiqishi va rivojlanishi jarayonini o'rganadi**

**Hozirgi zamон odamining bosh miya hajmi 1400-2000 sm<sup>2</sup>**

Pekin yaqinida, Chjoukoutyan degan joyda Xitoy arxantropining qoldiqlari topilgan va u sinantrop deb atalgan (lotincha Sina - Xitoy ). Ularning miya hajmi 915 – 1225 kub.sm. bo’lgan. Sinantrop toshdan qurol yasagan. Xitoy sinantropi olimlarning fikricha taxminan 300-500 ming yil avval yashagan. Sinantrop olovdan foydalangan, lekin uni qanday qilib olgani noma'lum. Olduvay g'orlarida esa olov izi topilmagan. Sinantrop ov qilishni bilgan (hayvonlar suyaklarining qoldiqlariga asoslanib), turli o'simliklarni terib yegan. 1927 yilda Pekin shahri yaqinida kanadalik olim D.Blek topgan sinantrop ham xitoy odamlari arxantroplarga mansub ekanligini tasdiqladi.

Germaniyaning Geydelberg shahri yaqinida 1907 yili arxantropning qoldiqlari topilgan. Bundan tashqarii Vengriyada, Chexoslavakiyada va Frantsiyada pitekantrorga yaqin odamsifat maymun qoldiqlari topilgan. Arxantroplardan keyingi bosqich kishilari fanda qadimgi odamlar (paleoantrop) nomi bilan ma'lum bo'lib, tadqiqotchilarining fikricha, ular zamonamizdan 100-50 ming yil avval yashaganlar.Qadimgi odamlarning qazilma qoldiqlari dastlab 1948, 1964 yillarda Ispaniyaning Gibraltar bo'g'ozi rayonidan, so'ngra 1970 yilda Germaniyaning Neandertal vodiysidan topilgan. Joyning nomidan kelib chiqib, bu odamni neandertal deb atash rasm bo'lgan. Mehnat jarayonida inson tafakkurining rivojlanishi natijasida neandertal odamlari hozirgi qiyofadagi odamlarga (neantrop) aylanib borgan. Ular ham aqliy, ham jismonan jihatdan kamol topib, hozirgi qiyofadagi kishilar vujudga keldi, shu bilan antropogenez jarayoni nihoyasiga yetdi. Huddi shu davrda yyevropoid, negroid va mo'g'il irqlari vujudga keldi.

Neandertal tipidagi odamlarning qazilma qoldiqlari Afrikadan, O'rta Yer dengizining sharqiy qirg'oqlaridan, O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari hududlaridan, Qora dengiz bo'yalaridan, Sharqiy Yevropadan va Osiyo yerlaridan topilgan. Keyingi topilmalar inson yoshini yanada yoshartirmaqda. 1994 yil may oyida Angliyada tosh asrida yashagan qadimiy inson qoldiqlari topildi. U 30 m chuqurlikda yotgan. Uning yoshi 500 ming yil. Bundan oldin Yevropada topilgan qoldiqlarning yoshi 100 ming yilga yoshroq.

1994 yil kuzda Efiopiyadan topilgan inson qoldiqlarining yoshi, 4,5 mln yil. Shunday qilib zamonaviy odamning ajdodlari Amerika va Avstraliyadan tashqari barcha mintaqalarda yashagan degan xulosaga kelish mumkin

### **Nazorat savollari.**

1. Arxeologiyaning bugungi kundagi vazifasi haqida nima deya olasiz.
2. Kishilik jamiyatining yuzaga kelishi haqidagi arxeologik ma'lumotlarni yakuniga yetgan tadqiqot deb hisoblash mumkinmi?
3. Arxeologiyaning boshqa tarixiy fanlardan farqli tomonini.
4. Arxeologiya tarix fanlarining tarkibiy qismi ekanligini qanday izohlaysiz?
5. «Arxeologiya» - so'zining ma'nosi va u dastlab kim tomonidan ishlatilgan?
6. Arxeologik qidiruv deganda nimani tushunasiz?
7. Madaniy qatlam deganda nimani tushunasiz?
8. Charlz Darvinnинг «Odamning paydo bo'lishi va jinsiy tanlanish» kitobida bayon etilgan ta'limotga qanday baho berasiz?

### **Adabiyotlar:**

1. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. - T., 1990.
2. Artsixovskiy A.V. Arxeologiya asoslari. - T., 1970.
3. Arxeologlar hikoya qiladi. Asqarov A. tahriri ostida. –T., 1970
4. G'ofurov U. Odamning paydo bo'lishi. - T., 1974.
5. Борисовский П.И. Древнейшие прошлое человечество. – Л.,1999.
6. Ранов В.А. древнейшие страницы истории человечество. – М.,1998.
7. Алексеев В.П. Становление человечество. – М.,1984.
8. История первобытного общества. Под ред. В.П.Алексеева. – М.,1979